Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budget jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025)	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxona ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari.....	1686
Sattorova Nasiba G'anjoni qizi	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri.....	1690
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari	1694
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish salohiyatining o'rni va roli.....	1701
Xudoyorova Mehrangiz Murodovna	
Xorijiy kapital va uning milliy iqtisodiyotdagi o'rni: nazariy-metodologik asoslar.....	1705
Abdullayev Zoxid Xolxo'jayevich	
Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlar.....	1710
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
Valyuta-moliya munosabatlari va globallashtirish jarayonlarining iqtisodiy mohiyati.....	1714
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Yuldasheva Umida	
Tijorat banklarida aholi omonatlarini jalb qilish va ularning jozibadorligini oshirish strategiyalari: iqtisodiy va raqamli yondashuvlar	1719
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1725
Kuliboev Azamat Shonazarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali sifatini oshirishda ta'limning ahamiyati.....	1731
M.Ostanova	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tish davrida hududlar soliq salohiyatini va ularni oshirish masalalari	1736
Baxtiyorov Umid Kaxramon o'g'li	
Перспективы и инновационные подходы в методологии управления денежными потоками	1741
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	1746
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Mintaqaviy turizmni rivojlanishi va xavfsizligini ta'minlashda turizm infratuzilmasining o'rni va ahamiyati (xorazm viloyati timsolida)	1753
Doschanov Tangirbergen Doschanovich, Ruzmetova Shoira Shuxrat qizi	
Turizm destinatsiyalarida turistik mahsulotni yaratish jarayonining tahlili.....	1759
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarning tarkibiy tahlili.....	1764
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Ergasheva Aziza Xasan qizi	
Davlat organlari ichki audit tuzilmalari tomonidan samaradorlik auditini tashkil etish masalalari.....	1773
Nasimov Fazliddin Sirojevich	
Совершенствование методологических основ внедрения цифровых финансовых активов.....	1777
Якубова Ш.Ш.	
O'zbekistonda turizm sohasi ko'rsatkichlari tahlili	1783
Ayubov Ilyos Ilxomovich	
"Yashil iqtisodiyot" ga o'tishda ESG-lizingdan foydalanish xususiyatlari	1788
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirishning nazariy asoslari va amaliy yo'nalishlari	1793
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Agrar sohani barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	1798
Bazarov Nazirjon Sobirovich, Mo'minov Baxodir Orifjonovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida aloqa xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari	1801
Xazratov Abror Panjiyevich	
Yengil sanoat eksportining mahsulot va geografik diversifikatsiyasi dinamikasi: muammo va yechimlar	1805
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, Abdunosirova Nilufar Ravshanbek qizi	



Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashning strategik yondashuvlari	1809
Toshboyev Bekzod Baxtiyorovich	
O'zbekistonda vino turizmini rivojlantirish yo'llari.....	1816
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
Yashil startaplar samaradorligini aniqlashda raqamli vositalar roli	1820
Eshbayev Oybek Alik o'g'li	
Fuqarolik jamiyati institutlariga moliyaviy mablag' jalb etish yo'llari.....	1830
Po'latov Sardor Akmal o'g'li	
The importance of accounting policy in preparing reports based on international standards.....	1835
Sayfulloev Jamshid Qobil o'g'li	
Qurilish sohasida materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatni raqamlashtirish yo'nalishlari	1839
Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li	
Aksiyadorlar, menejment va xodimlar o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish orqali innovatsiyalarni rag'batlantirish	1844
Ismailov Allayor Rashidovich	
Rivojlangan xorijiy davlatlarda davlat moliyaviy nazoratining ilg'or tajribalari va undan O'zbekiston foydalanish	1851
Saparov Elmurod Donabayevich	
O'zbekiston korxonalarida moliyaviy risklarni baholash amaliyotining dolzarbligi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari	1854
Payziyev Dilshod G'ulomovich	
Tijorat banklari uchun raqamli ruxsat berish standartlari.....	1859
Qurbonov Tolibjon Sobirjonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI STRESS-TESTLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1864
Muqumov Orifjon Abduraziqovich	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	1870
Gafurova Dilshoda Ramazanovna, Aminov Anvarxon Kazimovich	
INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY-INSTITUTIONAL VA AMALIY ASOSLARI.....	1874
U.N.Muxammadiyev	



INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL VA AMALIY ASOSLARI

U.N.Muxammadiyev

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Maqolada investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning huquqiy-institutsional va amaliy asoslari tahlil qilingan. Investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza, maxsus iqtisodiy zonalar, soliq imtiyozlari hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining investitsiya jarayonlariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari investitsiya muhitini yaxshilashda kompleks va tizimli yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: investitsiya muhiti, huquqiy kafolat, institutsional islohotlar, maxsus iqtisodiy zona, soliq imtiyozlari, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya siyosati.

Abstract: The article analyzes the legal-institutional and practical foundations for enhancing the attractiveness of the investment climate. It examines the regulatory framework governing investment activity, special economic zones, tax incentives, and public-private partnership mechanisms. The findings justify the necessity of a comprehensive and systematic approach to improving the investment environment and ensuring sustainable economic growth.

Key words: investment climate, legal guarantees, institutional reforms, special economic zones, tax incentives, public-private partnership, investment policy.

Аннотация: В статье проанализированы правовые, институциональные и практические основы повышения инвестиционной привлекательности. Рассмотрены нормативно-правовая база инвестиционной деятельности, специальные экономические зоны, налоговые льготы и механизмы государственно-частного партнёрства. Результаты исследования обосновывают необходимость комплексного и системного подхода к совершенствованию инвестиционного климата.

Ключевые слова: инвестиционный климат, правовые гарантии, институциональные реформы, специальные экономические зоны, налоговые льготы, государственно-частное партнёрство, инвестиционная политика.

KIRISH

Investitsiya muhiti mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining strategik asoslaridan biri hisoblanadi. U kapital oqimlarini jalb qilish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish hamda raqobatbardosh iqtisodiy tizimni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasida investitsiya resurslarini jalb etish borasidagi raqobat tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli har bir mamlakat o'z investitsiya muhitini izchil takomillashtirib borishi zarur.

O'zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar investitsiya muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan. Valyuta siyosatini liberallashtirish, litsenziya va ruxsat berish jarayonlarini



soddalashtirish, erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish sarmoya jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhitining samaradorligi huquqiy barqarorlik, institutsional sifat va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi bilan uzviy bog'liq. Rivojlangan mamlakatlarda mulk huquqining ishonchli himoyasi, sud tizimining mustaqilligi va shartnomalar ijrosining kafolatlanganligi investorlar uchun muhim mezon hisoblanadi.

Institutsional islohotlar investitsiya muhitining poydevorini tashkil etadi. Davlat boshqaruvining shaffofligi, korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlar, raqamli davlat xizmatlari va "yagona darcha" tizimining keng joriy etilishi sarmoyadorlar uchun ma'muriy jarayonlarni yengillashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi investitsiya jarayonlarini jadallashtiradi. Bank tizimi, kapital bozorlari, investitsiya fondlari hamda venchur moliyalashtirish mexanizmlarining kengayishi investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Hududlar kesimida investitsiya muhiti ko'rsatkichlari tahlili iqtisodiy faollik darajasi, xorijiy investitsiyalar oqimi hamda tarmoqlar bo'yicha taqsimotda muayyan farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa hududiy investitsiya siyosatini differensial yondashuv asosida shakllantirish zarurligini anglatadi.

Hududlarning investitsiya muhitini shakllantirish va izchil takomillashtirib borish, avvalo, mustahkam huquqiy asoslar bilan chambarchas bog'liqdir. Investitsiya jarayonlarining barqaror va samarali amalga oshirilishi huquqiy kafolatlarining aniq belgilanishi, qonun ustuvorligining ta'minlanishi hamda institutsional muhitning shaffofligi bilan bevosita bog'liq. Shu ma'noda, investitsiya muhitini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda butun mamlakat va hududlar iqtisodiyotiga investitsiyalarni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida qulay investitsiya muhitini shakllantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Investorlar va tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquq hamda manfaatlarini himoya qilishni ta'minlovchi, investitsiya faoliyatining huquqiy kafolatlarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Mazkur huquqiy asos investitsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi subyektlar uchun barqarorlik, ishonch va prognozlilikni ta'minlash orqali hududlarning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, investitsiya muhitini yanada rivojlantirish, uning tarkibiy va institutsional jihatlarini mustahkamlash hamda jozibadorligini oshirish doimiy e'tiborni talab etadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining tarixiy rivojlanish jarayonlari shuni ko'rsatadiki, izchil amalga oshirilgan huquqiy islohotlar investitsiya faoliyatini rag'batlantirish va investorlar uchun qulay muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiya faoliyatining samarali tashkil etilishi uning huquqiy jihatdan puxta ta'minlanganlik darajasiga ham bog'liqdir. So'nggi yillarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash yo'nalishida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, investitsiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni yagona va tizimli asosda takomillashtirish zarurati mavjud edi. Mazkur yo'nalishda qonunchilik bazasining kompleks ravishda yangilanishi investitsiya jarayonlarida huquqiy aniqlik va uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qildi.

Shu munosabat bilan, investitsiya muhitini mustahkamlashga qaratilgan qator muhim qonunlar qabul qilindi. Jumladan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi (O'RQ-598, 25.12.2019), "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi (O'RQ-537, 10.05.2019) hamda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi (O'RQ-604, 17.02.2020) qonunlar investitsiya jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda muhim o'rin egallaydi.

Xususan, 12 bob va 69 moddadan iborat "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun investitsiya sohasini kompleks tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat sifatida investitsiya munosabatlarini yagona tizimga keltirdi. Ushbu qonun mahalliy va xorijiy investorlar uchun huquqiy aniqlik, shaffoflik va teng sharoitlarni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonun asosan xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solishga yo'naltirilgani investitsiya siyosatini differensial yondashuv asosida amalga oshirish imkonini beradi (1-rasm).



Investitsiya faoliyati va muhitiga doir tushunchalar

- Investitsiya loyihasi** — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmui.
- Investitsiya majburiyati** — belgilangan maqsadlarga erishish uchun investor tomonidan qabul qilinadigan majburiyat.
- Investitsiya shartnomasi** — investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasida tuziladigan, investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim.
- Investitsiyalar** — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchilik asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar.
- Mahalliy investorlar** — investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari.
- Chet el investitsiyalari** — chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar.
- Mahalliy investorlar** — investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari.
- Chet ellik investorlar** — chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, davlatlar o'rtasidagi bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tuzilgan yoxud xalqaro bimmaviy huquq subyekti bo'lgan xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar, har qanday boshqa shirkatlar, tashkilotlar yoki uyushmalar, shuningdek chet davlat fuqarolari hamda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.
- To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari** — chet ellik investorming hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan investitsiyalari.
- O'zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar** — aksiyalarining (ulushlarining, paylarining) yoki ustav fondining (ustav kapitalining) kamida b'n besh foizi chet el investitsiyalaridan iborat bo'lgan korxonalar.


1-rasm. Investitsiya faoliyati va muhitiga doir tushunchalar¹

Yuqoridagi qonunning muhim jihatlaridan yana biri — investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida muayyan tamoyillarga amal qilinishi qonun darajasida mustahkamlab qo'yilganidir. Mazkur tamoyillar investitsiya munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishda asosiy yo'naltiruvchi mezon sifatida xizmat qiladi.

Ular investitsiya muhitining barqaror rivojlanishi, ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, investorlar uchun ishonchli va prognoz qilinadigan shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu tamoyillar investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlarini muvozanatli tarzda belgilashga xizmat qiladi.

Investitsiya muhitini takomillashtirish jarayonida mazkur tamoyillarga rioya etilishi investitsiya oqimlarining faollashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda ushbu tamoyillarning to'liq va izchil qo'llanilishi investitsiya siyosatining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi (2-rasm).

1 Muallif ishlanmasi



2-rasm. Investitsiya faoliyatining tamoyillari²

2-rasmda ifodalangan investitsiya faoliyatini amalga oshirishdagi asosiy tamoyillar investitsiya muhitini shakllantirish jarayoniga bevosita daxldor hisoblanadi. Mazkur tamoyillar investitsiya munosabatlarining huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilib, investitsiya muhitining barqarorligi va jozibadorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Xususan, ushbu prinsiplardan investorlarning vijdoniligi prezumpsiyasi hamda ularga nisbatan kamsitishga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini alohida ta'kidlash joiz. Bunday yondashuv investorlar faoliyatiga nisbatan ishonchli va adolatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tamoyillarning qonun darajasida mustahkamlanishi investitsiya faoliyati subyektlarining huquq va majburiyatlariga rioya etilishida muvozanatni ta'minlashga qaratilgan. Natijada, investitsiya jarayonlarida huquqiy aniqlik va barqarorlik ta'minlanib, investitsiya muhitida ijobiy institutsional sharoitlar shakllanadi.

Mazkur qonun bilan investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi investorlarning muayyan huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu normalar investitsiya munosabatlarida huquqiy aniqlikni ta'minlash, shuningdek, investorlar faoliyatini tartibga solishda yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Mahalliy va xorijiy investorlarning teng huquq hamda majburiyatlarga egaligi qonunan mustahkamlangan bo'lib, bu investitsiya muhitida adolat va shaffoflik tamoyillarining amalda ta'minlanayotganini anglatadi.

Investorlar huquq va majburiyatlarining bunday umumiyliги investitsiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida teng sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarni investitsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi barcha subyektlar mas'uliyatini oshirishga qaratilgan.

1-jadvalda aks ettirilgan investorlar hamda investitsiya faoliyati ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'RQ-598-son³ "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni bilan kafolatlangan. Mazkur qonun investitsiya munosabatlarida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy maqomini aniq belgilab, ularning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qonun normalari investorlar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni belgilash orqali investitsiya faoliyatida mas'uliyatli va barqaror yondashuvni ta'minlaydi. Huquq va majburiyatlarning qonun darajasida mustahkamlanishi investitsiya muhitida barqarorlik va ishonchni oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Natijada, investitsiya jarayonlarida huquqiy aniqlik ta'minlanib, investitsiya faoliyati ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar tizimli ravishda tartibga solinadi (1-jadval).

² Qonun hujjatlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Manba: <https://lex.uz/docs/4664142>

³ <https://lex.uz/docs/4664142>


1-jadval. Investor va investitsiya faoliyati ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari⁴

INVESTORNING HUQUQLARI	INVESTORNING MAJBURIYATLARI
Investitsiya faoliyatini erkin amalga oshirishga, investitsiya qilish hajmlarini, turlarini, shakllarini, sohasini va yo'nalishlarini mustaqil ravishda belgilashga; o'z investitsiyalariga va investitsiya faoliyati natijalariga egalik qilishga, ulardan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga, shuningdek investitsiya faoliyati natijalarini sotishga va olib chiqishga; investitsiya faoliyati natijasida olingan daromadlarni soliqlar, yig'imlar va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlar (bundan buyon matnda soliqlar va to'lovlar deb yuritiladi) to'langanidan so'ng mustaqil va erkin tarzda tasarruf etishga; o'zi qabul qilgan barcha turdagi majburiyatlarning, shu jumladan qarz mablag'larini jalb etishga qaratilgan majburiyatlarning ta'minoti sifatida o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk va har qanday mulkiy huquqlardan foydalanishga; o'z investitsiyalari va boshqa aktivlari rekvizitsiya (ekspropriatsiya) qilingan taqdirda munosib kompensatsiya olishga; kreditlar va qarzlar tarzidagi pul mablag'larini jalb etishga; davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari natijasida yetkazilgan zararlar uchun tovon olishga haqli.	Soliqlar va to'lovlarni to'lashi; investitsiya qilish munosabati bilan o'zi qabul qilgan shartnoma majburiyatlarini bajarishi; qonunchilik talablariga, shu jumladan raqobat to'g'risidagi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi, mehnat to'g'risidagi, shaharsozlik to'g'risidagi, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga, shuningdek texnika xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga rioya etishi; shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli investitsiya faoliyati ishtirokchisiga yetkazilgan zararlarining o'rnini qoplashi; vakolatli davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z vakolatlari doirasida qo'yiladigan talablarini bajarishi shart.
INVESTITSIYA FAOLIYATI ISHTIROKCHISINING HUQUQLARI	INVESTITSIYA FAOLIYATI ISHTIROKCHISINING MAJBURIYATLARI
Birja, tanlov va tender savdolarining, elektron do'konlarning va kim oshdi savdolarining ishtirokchisi bo'lishga; investorlar bilan ularning buyurtmalarini bajarish yuzasidan shartnomalar tuzishga; agar shartnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, o'zining investor oldidagi majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni jalb qilishga haqli.	Qonunchilikda belgilangan normalar, qoidalar va standartlarga, shu jumladan raqobat to'g'risidagi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi, investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi, mehnat to'g'risidagi, shaharsozlik to'g'risidagi va atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya qilishi; shartnoma shartlarini o'z vaqtida va lozim darajada bajarishi; shartnoma shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli investorga yetkazilgan zararlarining o'rnini qoplashi; davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z vakolatlari doirasida qo'yiladigan talablarini bajarishi shart.

4 Manba: <https://lex.uz/docs/4664142>



Investorlarning mavjud huquqlarining qonun asosida aniq belgilanishi va himoya qilinishi hududlarga jalb etiladigan investitsiyalar uchun muhim kafolat hisoblanadi hamda investitsiya muhitining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sanaladi (3-rasm).



3-rasm. Investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi⁵

Soliqlar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar qonunda belgilangan tartibda beriladi. Nazarda tutilgan investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladigan preferensiyalar tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarorlari bilan, shu jumladan munitsipal obyektlarga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobidan berilishi mumkin.

Imtiyozlar va preferensiyalar tegishli hududga investitsiyalar kiritishni nazarda tutuvchi investorlar uchun mazkur hudud infratuzilmasining rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda taqdim etiladi. To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda tashkil etilgan va qonun hujjatlari bilan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan korxonalarga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda ayrim soliqlar yuzasidan imtiyozlar qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi.

Imtiyozlar borasida qo'llaniladigan mexanizmlarni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin, ya'ni tarif va notarif yo'nalishdagi imtiyozlar (2-jadval).

2-jadval. Investitsion faollikni oshirishda tashqi savdo siyosati dastaklari guruhlanishi⁶

Mexanizmlar	Dastaklar	Qo'llanish sohasi
		Eksport
Tarif	Bojxona bojlari	
	Tarif kvotalari	
Notarif	Miqdoriy cheklavlar (kvotalash)	
	Litsenziyalash	+
	Eksportni ixtiyoriy cheklash	+
Yashirin	Davlat xaridlari	
	Mahalliy komponentlarni ushlab turish siyosati	
	Texnik to'siqlar (standartlar, sertifikatlash)	
	Soliqlar va yig'imlar	
Moliyaviy	Subsidiyalar	+
	Kreditlash	+
	Demping (pasaytirilgan narx siyosati)	+

⁵ Muallif ishlanmasi. Manba: <https://lex.uz/docs/4664142>

⁶ Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vaxabov, D.A. Tadjibayeva, Sh.X. Xajibakiyev. - Toshkent: Baktria press, 2015. -584 b.



2-jadvalda nazarda tutilgan imtiyozlardan soliq imtiyozlari borasida investorlarga, jumladan maxsus iqtisodiy zonalarga kiritilgan investitsiyalar hajmiga muvofiq, amaldagi Soliq kodeksining tegishli normalariga asosan imtiyozlar taqdim etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevraldagi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-sonli Qonuni⁷ga muvofiq, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari uchun qonunchilikda nazarda tutilgan huquqiy himoya kafolatlari, shuningdek, turli imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish huquqi mustahkamlangan. Mazkur qonun maxsus iqtisodiy zonalar hududida faoliyat yurituvchi investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan huquqiy muhitni ta'minlashga qaratilgan. Unda belgilangan kafolatlar investorlar manfaatlarini himoya qilish, ularning faoliyatiga ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish hamda investitsiya jarayonlarini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, imtiyoz va preferensiyalarning qonun darajasida belgilanishi maxsus iqtisodiy zonalarining investitsiya jozibadorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, maxsus iqtisodiy zonalar orqali investitsiya faoliyatini faollashtirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi.

Investorlar hisoblangan maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga nisbatan soliq solishning alohida tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi bilan tartibga solingan bo'lib, ushbu masalalar kodeksning 68-bobi — "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlangan bo'limida aniq belgilangan. Mazkur bob maxsus iqtisodiy zonalar hududida faoliyat yurituvchi investorlar uchun soliq yukini optimallashtirishga qaratilgan maxsus mexanizmlarni nazarda tutadi. Unga muvofiq, kodeksning 473-moddasida maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan soliq solish shartlari batafsil yoritilgan. Jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari bilan belgilangan muddatga imtiyozlar taqdim etilishi nazarda tutilgan. Ushbu soliq imtiyozlari investitsiya faoliyatini rag'batlantirish, kapital qo'yilmalar hajmini oshirish hamda investorlar uchun iqtisodiy jihatdan qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari foyda solig'ini to'lashda ham kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab differensiyalashtirilgan tartibda imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega bo'lib, mazkur imtiyozlar belgilangan tartibda taqdim etiladi.

O'zbekistonda 2022-yil davomida qo'llanilgan soliq imtiyozlarining umumiy hajmi 64,1 trln so'mni tashkil etgani soliq-byudjet siyosati orqali iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining faol qo'llanilayotganini ko'rsatadi. 2022-yil 21-dekabr holatiga ko'ra, 110 mingdan ortiq tashkilot mazkur miqdordagi soliq imtiyozlaridan, jumladan qo'shilgan qiymat solig'ining nol stavkasi hisobga olingan holda foydalangan. Bu holat soliq imtiyozlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatida muhim rag'batlantiruvchi omil sifatida xizmat qilayotganini anglatadi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, soliq imtiyozlarining eng katta ulushi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelib, ushbu ko'rsatkich 8,97 trln so'mni tashkil etgan. Mazkur holat poytaxt hududida iqtisodiy faollikning yuqoriligi, yirik korxonalar va investitsiya loyihalarining jamlangani bilan izohlanadi. Shuningdek, soliq imtiyozlari hajmi bo'yicha keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (2,4 trln so'm) hamda Farg'ona viloyati (1,8 trln so'm) qayd etilgan. Ushbu ma'lumotlar soliq imtiyozlarining hududiy taqsimoti iqtisodiy salohiyat va ishlab chiqarish faolligi darajasi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi⁸.

Soliq imtiyoziga ega bo'lganlar ro'yxatida mulkchilik shakli turlicha bo'lgan soliq to'lovchilar mavjud. Ro'yxatda davlat korxonalari, xususiy tadbirkorlik subyektlari, qo'shma korxonalar, aksiyadorlik jamiyatlari hamda xorijiy kompaniyalar qayd etilgan.

Sohalar kesimida tog'-kon sanoati, bank, transport, farmatsevtika, kommunal xizmat ko'rsatish, neft-gaz qazib chiqarish, energetika, sug'urta, tibbiyot, qurilish, dam olish, sport va boshqa yo'nalishlarda faoliyat yuritgan korxonalar imtiyozlardan foydalangan.

Soliq imtiyozlari ichida eng ko'p qo'llanilgan turi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'lib, undan 16 565 ta yoki 37,7 foiz xo'jalik yurituvchi subyekt foydalangan. Eng kam imtiyoz qo'llanilgan soliq turi esa foyda solig'i bo'lib, ushbu imtiyozdan 772 ta yoki 1,7 foiz tadbirkorlik subyekti foydalangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda⁹gi "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-son qarori⁹ga ko'ra, investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlashga qaratilgan qator yangi mexanizmlar joriy etildi. Unga muvofiq, strategik investitsiya loyihalari bo'yicha loyiha boshqaruvi tizimini muvofiqlashtiruvchi loyiha boshqaruvi markaziy ofisi tashkil etildi.

7 https://lex.uz/docs/4737511?utm_source

8 <https://daryo.uz/k/2022/12/30/ozbekistonda-yil-boshidan-beri-berilgan-soliq-imtiyozlari-64-trln-somdan-oshdi>

9 <https://lex.uz/uz/docs/-5801123>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Huquqiy tizimni takomillashtirish, institutsional barqarorlikni mustahkamlash, moliyaviy bozorlarni chuqurlashtirish hamda raqamli infratuzilmani izchil rivojlantirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar uzoq muddatli xususiy kapital oqimini jalb etish, investorlar ishonchini mustahkamlash hamda milliy iqtisodiyotning barqaror va sifat jihatdan yangi bosqichdagi o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, investitsiya muhitini yanada yaxshilashda hududlar kesimida differensial yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir hududning resurs salohiyati, logistika imkoniyatlari va tarmoq ixtisoslashuvini inobatga olgan holda maqsadli investitsiya dasturlarini ishlab chiqish investitsiya oqimlarining muvozanatli taqsimlanishiga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy faollikning hududlar bo'yicha barqaror o'sishini ta'minlab, ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, kapital bozorlarini rivojlantirish hamda innovatsion moliyaviy instrumentlarni joriy etish investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Xususan, "yashil" investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot loyihalari va yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarish yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Natijada, investitsiya muhiti barqaror va prognoz qilinadigan rivojlanish trayektoriyasiga ega bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4664142>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-fevralda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'RQ-604-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/4737511>
3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-537-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/-4329270>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida"gi PQ-72-son Qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-5801123>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvarda PF-5614-son Farmoni, <https://lex.uz/uz/docs/-4147294>
6. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (Statistika agentligi). Investitsiya va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. <https://stat.uz>
7. World Bank. World Development Report (Investment Climate and Institutions). <https://www.worldbank.org/en/publication/wdr>
8. OECD. Investment Policy Reviews. <https://www.oecd.org/investment/investment-policy/>
9. UNCTAD. World Investment Report. <https://unctad.org/topic/investment/world-investment-report>
10. Heritage Foundation. Index of Economic Freedom. <https://www.heritage.org/index/>
11. UNIDO. Industrial Development Report. <https://www.unido.org/resources-publications>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>